

Axborot-kommunikasiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish yo'lida

Poytaxtimizda «bulutli» texnologiyalarni amaliyotga joriy etishga bag'ishlangan xalqaro anjuman bo'lib o'tdi. Tadbirda ushbu texnologiyalarni rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari va ularning axborot texnologiyalari sohasiga ta'siri muhokama qilindi.

Anjumanda O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarini rivojlantirish vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar xodimlari, "bulutli" texnologiyalar sohasi etakchi mutaxassisleri, ixtirochilar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari vakillari ishtirok etdi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning 2012 yil 21 martdagi «Zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq, mamlakatimizda axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanish ko'lami kengayib borayotgani ta'kidlandi. xususan, davlat idoralari faoliyatiga ixtisoslashtirilgan dasturiy komplekslar va interfaol xizmatlar samarali joriy etilmoqda. Shu bois turli moslama yoki dasturiy komplekslardan foydalanishda ularning samaradorligini oshirish hamda yangi imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladigan bunday zamonaviy texnologiyalarni joriy etish yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Anjumanda O'zbekistonda «bulutli» texnologiyalarni joriy qilish orqali innovation faoliyat samaradorligini yanada oshirish masalasi ham muhokama etildi. Jumladan, «bulutli» texnologiyalarga asoslangan turli hisob-kitoblar an'anaviy telekommunikasiyalar, internet tarmog'ining milliy segmenti hamda mamlakatimiz sanoatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. «Bulutli» texnologiyalar infratuzilmasi yordamida istalgan joy va vaqtda ortiqcha xarajatlarsiz katta hajmdagi hisoblash quvvatlaridan foydalanish imkoniyati paydo bo'ladi.

Tadbir doirasida, xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik vakillari uchun «bulutli» texnologiyalar sohasidagi so'nggi ishlanmalar namoyish etildi.

– Zamonaviy ilm-fan yutuqlari ochiq «bulutli» texnologiyalar ekotizimini yaratish uchun keng imkoniyatlar beradi, – deydi «Huawei» kompaniyasining O'zbekistondagi bosh direktori Van Pen. – Uning yordamida yirik telekommunikasiya kompaniyalari, mahalliy dasturiy ta'minot yaratuvchilari hamda milliy kontent-provayderlar axborot-kommunikasiya texnologiyalari sanoatini yanada rivojlantirish maqsadida aholiga sifatli, tezkor xizmat ko'rsatishda hamkorlik qilishi mumkin.

Tadbir yakunida mamlakatimiz iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotining turli

sohalariga «bulutli» texnologiyalarni joriy qilish istiqbollari yuzasidan fikr almashildi.

Roman Bondarchuk, O'zA